

Sizga doim ta'zimdamiz ustozlar

Bugun o'qituvchilik kasbi yuksak maqomda. Buni yurtboshimizning o'qituvchi va murabbiylarga ko'rsatayotgan hurmat va ehtiromida ko'rishimiz mumkin. O'qituvchilarga g'amxo'rlik qilish, ularning mehnat haqqini oshirish, turli imtiyozlarning joriy etilishi-bularning barchasi bu kasbning qadr topayotganidan dalolatdir. Erta tongdan TIQXMMI Qarshi filialida Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tashabbusi bilan ustozlarga atalgan kuy-qo'shiqlar ustozi va murabbiylarga xushkayfiyat ulashib munosib tarzda kutib olindi.



Ulug' shoir A. Jomiy aytganidek: Jahonda bo'lmasa muallim agar, Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar. Bu so'zlarning zamirida ham ustozlarga buyuk ehtirom keltirilgani namoyon bo'ladi. Aslida ustozlar bayramini nishonlash, ularga hurmat va e'tibor ko'rsatishning alohida vaqt bo'lmaydi, ular biz uchun hamisha suyukli va azizdir. Filial talabalari va shogirdlar nomidan, barcha ustozi va murabbiylarni yana bir bor yurakdan, kasb bayramlari bilan tabriklab qolamiz.



TIQXMMI matbuot xizmati